O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Bank ishi” kafedrasi

“BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH VA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 11-oktabr

Samarqand - 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“Bank ishi” kafedrasi

“BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH VA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 11-oktabr



Samarqand - 2025

UO‘K: 336.71:316.422
B 28
KBK: 65.262.1

Banklarni transformatsiya qilish va bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish: muammo va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2025-yil 11-oktabr. Samarqand, SamISI, 2025. – 542 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Karimova A.M. - i.f.d., prof. v.b., “Bank ishi” kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

Tursunov F.M. - “Bank ishi” kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

To‘plamga iqtisodchi olimlar, doktorantlar, magistrlar, talabalarning iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida banklarni transformatsiya qilish va bank xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida banklarning zamonaviy xizmatlari va investitsion faoliyatni takomillashtirish masalalari, innovatsion iqtisodiyot orqali iqtisodiy, ijtimoiy va xizmat ko‘rsatish sohalarni rivojlantirish masalalari va zamonaviy iqtisodiyot va raqamlashtirish sharoitida bank-moliya tizimi yordamida bir qator tarmoqlar va sohalarni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar kiritilgan.

To‘plam professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodimlar, magistrlar, talabalar va amaliyot xodimlari uchun foydalanishga mo‘ljallangan.

Tashkiliy qo‘mita a’zolari:

Po‘latov M.E.	i.f.d., professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori
Karimova A.M.	i.f.d., professor v.b., “Bank ishi” kafedrasi mudiri, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Niyozov Z.D.	i.f.n., “Bank ishi” kafedrasi dotsenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Tursunov F.M.	“Bank ishi” kafedrasi assistenti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-587-67-2

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

5. Логунова, Н. А., & Доценко, Ж. Л. (2016). Роль государства в развитии инклюзивного туризма. *Сервис в России и за рубежом*, *10*(2 (63)), 40-53.

6. Rakhimov, Z. O. (2022). The importance of the development of the digital economy in the field of tourism in Uzbekistan. *Builders of the Future*, *2*(02), 221-227.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ФАРМАЦЕВТИКА ФАОЛИЯТИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ

Худайназарова Дилноза Гафуровна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. *Ушбу мақола фармацевтика корхоналарининг умумий фаолияти, ушбу корхоналарда ишлаб чиқариладиган фармацевтика маҳсулотларининг турлари, уларнинг бухгалтерия ҳисобини юритишнинг долзарб жиҳатларини ўз ичига қамраб олган. Шунингдек, мақолада фармацевтика маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг мамлакат иқтисодиётидаги зарурияти, ички ва ташқи бозордаги талаб ва таклифларнинг фармацевтика корхоналаридаги таъсири тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар: *фармацевтика фаолияти, фармацевтика корхоналари, дори воситалари, даромадлар бухгалтерия ҳисоби, харажатлар бухгалтерия ҳисоби, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.*

Ўтган асрнинг сўнгги йилларида Фармацевтика соҳасида ривожланган мамлакатлардан ҳисобланган Украина Ҳукумати ва Ўзбекистон Республикаси ўртасида “Фармацевтика саноати соҳасида ўзаро ҳамкорлик тўғрисида”[143] битим имзоланди. Ушбу меъёрий ҳужжатда ҳар иккала томон ҳам мамлакатда фаолият юритаётган фармацевтика маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи корхоналарни қўллаб-қувватлаш, уларнинг фаолиятини кенгайтириш, сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқарилишини таъминлаш ва бошқа ҳар томондан қўллаб-қувватлаш бўйича аҳдлашиб олган. Демак, бундан кўриниб турибдики, фармацевтика соҳасига берилаётган эътибор мамлакатимиз мустақиллигидан сўнг шакллана бошланган бўлиб, бугунги кунга келиб мазкур соҳа фаолияти жадал ривожланиб бормоқда. Бу эса, ўз навбатида, ҳар бир мамлакат учун, жумладан Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва иқтисодий

[143] Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати ва Украина Ҳукумати ўртасидаги “Фармацевтика саноати соҳасида ўзаро ҳамкорлик тўғрисида”ги Битим. 1996 йил 5 декабрь.

томондан ҳар томонлама равнақ топиши ҳамда фаровон турмуш тарзини барпо этиши учун ҳам энг муҳим ва долзарб масалалардан ҳисобланади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 28 январдаги “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”[144]ги Фармонида фармацевтика маҳсулотлари ишлаб чиқариш тармоқларида рақамлаштириш жараёнларини ташкил этиш, хусусан рақамли технологияларни киритиш орқали корхоналарни модернизациялаш, дунё мамлакатларида белгиланган стандартлар бўйича фармацевтика маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажми ва уларнинг сифатини ошириш, фармацевтика маҳсулотлари ҳисобини тўғри юритиш мақсадида маркировка тизимини жорий этиш, ушбу маҳсулотларнинг сотиш ҳажмини ошириш мақсадида ижтимоий тармоқларда рекламани кучайтириш ва бошқа шу каби жараёнларга қаратилган муҳим вазифалар келтирилган бўлиб, фармацевтика корхоналарида мазкур вазифаларнинг ижросини таъминлаш, шунингдек ушбу жараёнлар бухгалтерия ҳисобини молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларида белгиланган мезонлар асосида юритилишини таъминлаш, ҳисоботларнинг ахборот таъминотини янада кенгайтириш бугунги куннинг энг муҳим вазифаларидан деб ҳисоблаш мумкин.

Меъёрий ҳужжатларда келтирилган таърифга кўра, “**Фармацевтика фаолияти** – дори воситалари ва тиббий буюмлар яратиш бўйича илмий-тадқиқот ишларини, шунингдек уларни ишлаб чиқариш, тайёрлаш, уларнинг сифатини назорат қилиш ҳамда уларни реализация қилишни қамраб оладиган фаолият”[145], деб келтирилган. Бугунги кунда мамлакатимизда ушбу фармацевтика фаолиятига берилаётган эътибор натижасида мазкур фаолият билан шуғулланувчи корхоналар сони ҳамда ушбу тармоқ субъектларининг фаолият йўналишлари тобора ошиб бормоқда. Бунинг натижасида фармацевтика маҳсулотлари турлари ва сифати ҳам мос равишда ошиб бормоқда. Бу эса, албатта, мамлакат миллий иқтисодиёти равнақи йўлида муҳим ижтимоий-иқтисодий жараёнлардан бири бўлиб ҳисобланади. Тадқиқот ишимизда мамлакатимиздаги бу борадаги ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлар тадқиқи амалга оширилди.

Мавжуд меъёрий ҳужжатларда фармацевтика маҳсулотларининг таркибий қисмлари ҳисобланган “дори воситалари”, “тиббий буюмлар” ва “тиббий техника” атамаларига қуйидагича таъриф берилган:

“**дори воситалари** – касалликлар профилактикаси, уларга ташхис қўйиш ва уларни даволаш, шунингдек одам организмининг ҳолати ва функцияларини ўзгартириш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори моддалари (субстанциялар) ва ёрдамчи моддалар

[144] Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 28 январь. ПФ-13-сон.
[145] Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 4 январь. ЎРҚ-399-сон.

асосида олинган воситалар, дори моддалари (субстанциялар), дори препаратлари;

тиббий буюмлар – касалликлар профилактикаси, уларга ташхис қўйиш ва уларни даволаш учун, шунингдек одам организмининг ҳолати ва функцияларини ўзгартириш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган буюмлар;

тиббий техника – касалликлар профилактикаси, уларга ташхис қўйиш ва уларни даволаш учун, шунингдек, одам организмининг ҳолати ва функцияларини аниқлаш ҳамда ўзгартириш учун тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган аппаратлар, ускуналар, приборлар, асбоблар, қурилмалар ва мажмуалар”[146].

Республикамизда мазкур фармацевтика маҳсулотларини тайёрлаш ва сотиш фаолияти билан шуғулланувчи хўжалик юритувчи субъектлар бу дорихоналар ҳисобланиб, ушбу корхоналар Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги ҳузуридаги “Фармацевтика маҳсулотлари хавфсизлиги маркази” ташкилоти томонидан тақдим этиладиган тегишли лицензия асосида ўз фаолиятларини амалга оширадилар ҳамда дорихоналар фаолияти мазкур давлат ташкилоти томонидан доимий тарзда назорат қилиниб борилади. Мазкур давлат муассасаси томонидан Ўзбекистон Республикасида тиббиёт тармоқларида фойдаланишга рухсат этилган фармацевтика маҳсулотларининг давлат реестри ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу ҳужжатга мувофиқ, фармацевтика маҳсулотлари қуйидаги турларга таснифланади:

Давлат реестрининг ушбу гуруҳлари таркиби 1300 тадан ортиқ маҳаллий ҳамда чет эл мамлакатларининг хўжалик юритувчи субъектларида ишлаб чиқарилган фармацевтика маҳсулотлари асосида шакллантирилган бўлиб, унда жами 11133 хил номдаги дори воситалари, 5275 хил номдаги тиббий буюмлар ва тиббий техника маҳсулотлари таркиби келтирилган[147].

[146] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Аҳолини фармацевтика маҳсулотлари билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2018 йил 23 март. 213-сон.

[147] Тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори воситалари, тиббий буюмлар ва тиббий техника давлат реестри. Тошкент – 2023.



5-расм. Давлат реестрига мувофиқ фармацевтика маҳсулотлари таснифи[148]

Юқорида олиб борилган тадқиқотлар натижасида айтиш мумкинки, мамлакатимизда фаолият кўрсатаётган фармацевтика корхоналари фаолияти ўзига хос жиҳатларга эга ҳисобланиб, ушбу тармоқ корхоналарида бухгалтерия ҳисобини ташкил этиш ва юритиш, жумладан фармацевтика корхоналарининг даромад ва харажатлари бухгалтерия ҳисобини юритиш, улар ҳисобини илҳор тажрибаларга мослаштириш, ушбу тармоқ субъектлари бухгалтерия ҳисоби жараёнларида хорижий тажрибаларни қўллаш, фармацевтика маҳсулотларига оид ахборотлар шаффофлигини таъминлаш, бунда ҳисоботларни такомиллаштириш каби муҳим вазифалар мавжуд. Ушбу вазифаларнинг амалга оширилиши даромад ва харажатлар бухгалтерия ҳисобини илмий ва назарий томондан чуқур тадқиқ этишга, фармацевтика корхоналарида даромад ва харажатлар бухгалтерия ҳисобини юритишни осонлаштиришга, молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига мувофиқлаштиришга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Ҳукумати ва Украина Ҳукумати ўртасидаги “Фармацевтика саноати соҳасида ўзаро ҳамкорлик тўғрисида”ги Битим. 1996 йил 5 декабрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Фармацевтика тармоғини жадал ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони. 2025 йил 28 январь. ПФ-13-сон.

[148] Тадқиқотлар асосида муаллиф ишланмаси.

3. Ўзбекистон Республикасининг “Дори воситалари ва фармацевтика фаолияти тўғрисида”ги Қонуни. 2016 йил 4 январь. ЎРҚ-399-сон.

4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Аҳолини фармацевтика маҳсулотлари билан таъминлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2018 йил 23 март. 213-сон.

5. Боронов, Б. Ф. (2022). Ёғ-мой маҳсулотлари ишлаб чиқариш харажатлари ҳисобининг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. *ISSN 2181-3191 VOLUME 1, ISSUE 7 OCTOBER 2022*, 202284.

6. Тиббиёт амалиётида қўлланилишига рухсат этилган дори воситалари, тиббий буюмлар ва тиббий техника давлат реестри. Тошкент – 2023.

O‘ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: RAQOBAT MUHITINI RIVOJLANTIRISH, FINTECH INTEGRATSIYASI VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Ilmiy rahbar: Norqulov Habibullo
Samarqand Iqtisodiyot va Servis insitituti
Bank ishi kafedrasi assistenti
Azamov O‘gabek Ulug‘bek o‘g‘li
SamISI, “Bank-Moliya xizmatlari”fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston bank tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish, raqobat muhitini shakllantirish va fintech kompaniyalar bilan integratsiyalashuv jarayonlari kompleks tarzda o‘rganildi. Mamlakat bank sektoridagi islohotlar, mavjud muammolar hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlanish istiqbollari tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: raqamli transformatsiya, bank tizimi, fintech integratsiyasi, raqobat muhiti, regulyativ sandbox, mobil banking, sun’iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, tartibga solish mexanizmlari.

Asosiy qism. XXI asrning uchinchi o‘n yilligi jahon moliya bozorlarida tezkor o‘zgarishlar davri bo‘lib, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bank faoliyatining an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Fintech kompaniyalar innovatsion yondashuvlari bilan an’anaviy banklarning monopol mavqeiga jiddiy raqobat tug‘dirmoqda. Bu jarayon O‘zbekiston moliya tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, banklar faoliyatini zamonaviy texnologiyalar asosida qayta tashkil etishni talab etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda bank sektorini modernizatsiya qilish va raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Bank xizmatlari sifati oshdi, mijozlar uchun yangi qulay

76	*F.E.Jomonqulova.*	*Iqtisodiy axborotlarni qayta ishlash jarayonida bulutli foydalanish texnologiyalari ……*	*331*
77	*Norqulov Habibullo Narzullayev Ravshan Nurali o‘g‘li*	O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya: raqobat muhitini rivojlantirish, fintech integratsiyasi va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish……..	*337*
78	*Kanaatov A.Sh.*	*Majburiy kapitalning shakllanishi va hisobi xususiyatlari……*	*344*
79	*Rasulov D.N. Niyozov Z.D.*	*Sug‘urta jarayonida agrosug‘urtaning iqtisodiy ahamiyati va samaradorligi……*	*347*
80	*Tursunov F.M. Shaydullayev A.*	*Bank faoliyatining diversifikatsiyasi va xalqaro moliya tizimidagi ahamiyati……*	*351*
81	*Niyozov Z.D. Esirgapov A.K. Rasulov D.N.*	*Sun’iy intellekt va pul-kredit siyosatining yaim o‘sishiga ta’siri: rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotlari misolida (2010–2024 yillar)……*	*355*
82	*Xoliqulov O‘. Abdusalomov A.*	*Global inflyatsiya jarayonlari va bank tizimiga ta’siri……*	*359*
83	*Худайназарова Д.Г.*	*Ўзбекистонда фармацевтика маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг зарурияти……*	*367*
84	*Maxmudova A.P.*	*Mamalakatimizda geoturizmni rivojlantirish istiqbollari……*	*371*
85	*Norqulov H.I.*	*Raqamli bank xizmatlarini tartibga soliish va uni samaradorligini oshgirish va bank tizimidagi takliflar……*	*376*
86	*Ashurova O.Y. Tursunova B.*	*O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida investitsion jozibadorlikni oshirish……*	*380*
87	*Sobirov I. X. Sattorova Sh.*	*Mobil banking xizmatlaridan foydalanishni takomillashtirish……*	*384*
88	*Igamov H.Sh. Xolikulov O‘.A.*	*Pulning qadrsizlanishi va aholining moliyaviy xulq-atvori……*	*387*
89	*Ashurova O.Y. Abdulxamitova Y.*	*Innovatsiya - xizmat ko‘rsatish sohalarining samaradorligini oshirish omilidir……*	*389*
90	*Mamarajabova S. Niyozov Z.D.*	*Monetar siyosat orqali moliyaviy inkluziyani kuchaytirish imkoniyatlari……*	*393*
91	*Yuldashev G.T.*	*Innovatsion menejmentning nazariy asoslari va korxonalar rivojlanishidagi ahamiyati….*	*397*
92	*Niyozov Z.D. Murodov A.A.*	*Aholining mehnat orqali daromad topishga bo‘lgan qiziqishini keskin oshirish……*	*402*

“BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH VA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman

MATERIALLARI

2025-yil 11-oktabr

“STAP-SEL” MChJ nashriyoti,
Samarqand - 2025.

ISBN: 978-9910-587-67-2

Tasdiqnoma № 033337 (27.07.2022)
© “STAP-SEL” MChJ nashriyoti, Samarqand 2025 y.

2784

2025 yilda chop etildi.
Qog‘oz bichimi A5, 60x84 1/16, Ofset qog‘ozi.
“Times New Roman” garniturasi.
Nashr bosma tabog`i 33.87
Buyurtma № 0125A/25. Adadi 30 nusxa

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining matbaa bo`limida chop etildi.
LICENSE № 025316.
REESTR № X-119112.
Manzil: Samarqand shahar, Shoxrux ko`chasi 60-uy.